

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJAVLANOVA NODIRA XAMZA QIZI

MAXSUS PEDAGOGIKA MODULINI INTEGRATIV O'QITISH
VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.03 –Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Djavlanova Nodira Xamza qizi

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy
motivatsiyasini rivojlantirish metodikasi3

Джавланова Нодира Хамза кизи

Методика развития профессиональной мотивации студентов средством
интегративного обучения специального педагогического модуля21

Djavlanova Nodira Khamza kizi

Methodology for developing students' professional motivation through integrative
teaching of the special pedagogical module.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJAVLANOVA NODIRA XAMZA QIZI

MAXSUS PEDAGOGIKA MODULINI INTEGRATIV O'QITISH
VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.03 –Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2026.2.Phd/Ped663-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Gavxar Saparovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Goyipova Nodira Baxtiyorjon qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "18" 06 soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (509 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" 06 kuni tarqatildi.

(2026-yil "5" 06 daqi 24 raqamli reyestr bayonnomasi)



[Signature]
F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

[Signature]
I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

[Signature]
D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak maxsus pedagoglarni ixtisoslik modullarini integrativ va individual yondashuvlar asosida o'qitish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari, adaptiv texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilgan. YUNESKOning "Ta'lim hamma uchun" dasturida inklyuziv va korreksion ta'lim sharoitida pedagoglar innovatsion hamda kasbiy rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan. Bunda kadrlar tayyorlash tizimida ijtimoiy buyurtmani bir umrlik ta'lim, insonparvarlik, tenglik tamoyillari bo'yicha shakllantirish muhim sanaladi. Shuningdek, talabalarining kasbiy tayyorgarligida muhim sanalgan ixtisoslik modullarini o'qitishning mazmuni hamda ta'lim shakllarini modernizatsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida kadrlar tayyorlash tizimini mazmunan takomillashtirish, talabalarining kasbiy rivojlanishida prognostik rejalashtirishni kuchaytirish, ixtisoslik modullarini o'qitish jarayonida individual va differensial o'qitish shakllaridan foydalanish, mustaqil ta'limni innovatsion texnologiya va resurslar yordamida tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak maxsus pedagoglarda tibbiy va pedagogik bilimlarni integrativ qo'llash, diagnostik va metodik faoliyatni imkoniyati cheklangan bolalar toifalari kesimida tashkil etishga doir ko'nikma, malakalarni rivojlantirishda ixtisoslik modullarini integrativ o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Maxsus pedagogika modulini o'qitishda ichki va tashqi hamda mazmuniy integratsiyani kuchaytirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda refleksiv, motivatsion, metodik tayyorgarlikka yo'naltirilgan kontentdan foydalanish muhim sanaladi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida modullarni o'qitish jarayoniga jahonning yetakchi tendensiyalarini joriy etish, kasbiy rivojlanish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi. "Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash, ta'lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish"¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada innovatsion ta'lim sharoitida modullarni o'qitish orqali bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishning moddiy texnik, didaktik ta'minotini yaratishga keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - Toshkent: Adolat, 2017. - B.25.

13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda inklyuziv va korreksion ta'limga mobil kadrlarni tayyorlash, oliy ta'limda o'qitish samaradorligini oshirish masalalari M.Ayupova, G.Abdullayeva, L.Muminova, K.Mamedov, Z.Mamarajabova, D.Nurkeldiyeva, D.Nazarova, N.Raxmonqulova, U.Fayziyeva, G'.Shoumarov, R.Shomaxmudova, D.Yakubjanova, F.Qodirova, F.Teshaboyeva, M.Maxmudova, M.Sattorova, D.Pulatova, M.Dehqanova, I.Sayfullayevalar va boshqalarning ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari B.Abdullayeva, R.Djurayev, N.Muslimov, R.Safarova, O'.Tolipov, J.Tolipova, M.Urazova, A.Xalikov, Sh.Shodmonova, F.Yuzlikayevlar va boshqalarning izlanishlarida tahlil etilgan.

MDH davlatlaridan V.Kovalyov, Y.Leytes, L.Bojovich, T.Shmidt, N.Berezina, I.Nechayev, K.Sergeyevich, Y.Romanova, N.Sorokina, M.Ovchinnikov, T.Gordeyeva va N.Shmatkolarning ilmiy izlanishlarida oliy ta'lim jarayonini tashkil etish va korreksion ta'limni tashkil etishning pedagogik-tashkiliy hamda metodikasi tadqiq etilgan.

Xorij davlatlarida oliy ta'limining o'ziga xosligi, institutsional jihatlari va boshqaruv yondashuvlari hamda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning turli aspektlari Frederik Gertsberg, Abraham Maslou, Jon R.Porter va Edvard E.Lauler, V.Frankl, R.Rayen va E.Desilar, N.Xosino, T.Xyusen, G.Olport, B.Skinner, L.Festinger, Z.Freyd, X.Xekxaufen kabi olimlar tadqiq etganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga asosan "Inklyuziv va korreksion ta'lim klasterining pedagogik-psixologik asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy ishlar rejasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'limda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'limda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish

jarayoni belgilangan bo'lib, Toshkent Yangi asr universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti va Nukus davlat pedagogika institutlarining 251 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'limda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, texnologiya va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish imkoniyatlarini ochib berish;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy manbalar, DTS, o'quv reja, fan dasturlari, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish imkoniyatlari talabalarning akademik-ijtimoiy portreti diagnostikasini kasbiy tushunchalar va sifatlar integratsiyasida reflektiv monitoring ustuvorligida maqbullashtirish asosida ochib berilgan;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modeli korreksion ta'sirni rejalashtirish va adaptivlashtirishga talabalarni tayyorlovchi metodik algoritmnini yakka, frontal ish shakllarida interaktiv transformatsiyalarda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish texnologiyalari diagnostika va korreksiya faoliyatining sinergetik tavsifida mustaqil ta'lim monitoringini talabalarning o'zlashtirish dinamikasi bilan qiyoslash va bo'shliqlar profilaktikasini kasbiy leksik bazada jadallashtirish asosida takomillashtirilgan;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti maxsus pedagogik kontekstni ilmiy-amaliy klasterda akademik filtrlash va vizual, audial, kinestetik konstruksiyalarda differensiallashish imkoniyatlariga ko'ra maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "60112700 – Maxsus pedagogika" bakalavriat ta'lim yo'nalishi ishchi o'quv rejasining umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan "Maxsus pedagogika" modulining zamonaviy texnologiyalarga asoslangan mazmuni va uning o'quv - metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

“Maxsus pedagogika” fanining o‘quv dasturi va mustaqil ta’lim topshiriqlarining vizual, audial, kinestetik konstruksiyalari ishlab chiqilgan va yakka, frontal ish shakllarida akademik optimallashtirilgan;

bo‘lajak maxsus pedagoglarni kasbga qiziqtirish, faoliyatga motivatsion yo‘naltirishning usul va vositalarini o‘zida aks ettirgan “Oligofrenopedagogika” qo‘llanma nashr qilingan va amaliyotga joriy etilgan;

ixtisoslik va klinik-tibbiy modullar integratsiyasida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda talabalarda kasbiy motivatsiyani kuchaytiruvchi “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning logopedik reabilitatsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan texnologiya, usul va vositalar hamda ularni o‘zida mujassamlangan metodik algoritm mazmuni va tarkibiy qismlari rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlarga asoslanganligi, pedagogik ta’lim sohasidagi respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining qarashlariga, shuningdek, sohadagi yetakchi tendensiyalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanganligi, tahlil va tadqiqot tasnifining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanganligi, bajarilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, keltirilgan tahlillar, xulosa va takliflar hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarni kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorlash muammolari ilmiy jihatdan aniqlanganligi, ushbu muammolarni bartaraf etishning shart-sharoitlari, yo‘llari va usullari ishlab chiqilganligi, talabalarning akademik-ijtimoiy portreti diagnostikasi kasbiy tushunchalar va sifatlar integratsiyasida refleksiv monitoring ustuvorligida maqbullashtirilganligi hamda diagnostika va korreksiya faoliyatining sinergetik tavsifida modulning mustaqil ta’lim topshiriqlarini ilmiy-amaliy klasterda vizual, audial, kinestetik konstruksiyalarda differensial holda joriy etish metodikasining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Maxsus pedagogika” modulini o‘qitish mazmunini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalardan oliy ta’lim o‘quv jarayonida, maxsus pedagogik faoliyat olib borayotgan amaliyotchi pedagoglarning malakasini oshirish kurslarida, sohaga oid olib borilayotgan tajriba-sinov ishlarida qo‘llanilishi mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maxsus pedagogika modulini integrativ o‘qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda Maxsus pedagogika modulini integrativ o‘qitish imkoniyatlari talabalarning akademik-ijtimoiy portreti diagnostikasini kasbiy tushunchalar va sifatlar integratsiyasida refleksiv monitoring ustuvorligida maqbullashtirishga oid takliflari “Oligofrenopedagogika” nomli o‘quv

qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 566245-son ma'lumotnoma). Natijada, oliy ta'limda ixtisoslik modullarini o'qitish jarayoni metodik jihatdan takomillashtirilgan;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modeli korreksion ta'sirni rejalashtirish va adaptivlashtirishga talabalarni tayyorlovchi metodik algoritmnini yakka, frontal ish shakllarida interaktiv transformatsiyalarda qo'llashga oid tavsiyalari "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning logopedik rehabilitatsiya" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-754-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganligini ta'minlovchi usul va texnologiyalar amaliyotga joriy etilgan;

Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish texnologiyalari diagnostika va korreksiya faoliyatining sinergetik tavsifida mustaqil ta'lim monitoringini talabalarning o'zlashtirish dinamikasi bilan qiyoslash va bo'shliqlar profilaktikasini kasbiy leksik bazada jadallashtirish takliflari Andijon davlat pedagogika instituti, Nukus davlat pedagogika instituti va Yangi asr universitetining o'quv va mustaqil ta'lim jarayoniga joriy etilgan (O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika Tashxis markazining 2026-yil 1-maydagi 01/10-01-174-son ma'lumotnomasi). Natijada, mustaqil ta'limni monitoring qilish instrumentlaridan differensial foydalanish imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Maxsus pedagogika**"ni integrativ o'qitish vositasida talabalar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlanib, unda maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarida kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati hamda talabalarning kasbiy

motivatsiyasini rivojlantirishda Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitishning didaktik imkoniyatlari bayon etilgan.

Bugungi kunda kadrlar tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy talabning ko'lam va tavsifi zamonaviy ko'nikmalar, axborot texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt hamda shaxsiy o'sishga bo'lgan motivatsiya bilan bog'liq ravishda transformatsiyalanmoqda. Ta'limning qaysi bosqichida bo'lsin, pedagogik jarayon axborot texnologiyalari va ularga mos vositalar asosida tashkil etilmoqda. Shuningdek, nafaqat ta'lim, balki inson hayotining barcha sohalarida internet va raqamli vositalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maxsus pedagog faoliyati bolalar va kattalarda uchraydigan aqliy, psixologik, ko'rish, eshitish, harakat tizimidagi muammolarni o'rganish, tashxislash, korreksiyalash, rehabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Ko'rinib turibdiki, maxsus pedagog faoliyati o'z tarkibida tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik bilimlarni mujassamlaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, maxsus pedagog kasbi mazmunan keng qamrovli, tuzilish jihatdan murakkabdir. Bu kasbni egallashga kirishgan har qanday talaba uning o'ziga xos jihatlarini va jamiyatdagi o'rni hamda mavqeini anglashi lozim.

Maxsus pedagog kasbiga qiziqish ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan ijtimoiy rolklar orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Bu yo'l orqali kasbni egallashga kirishgan talabalar ham oliy ta'limda o'z maqsadlarini to'g'ri belgilashlari mumkin. Talaba qaysi omilga ko'ra bu kasbni egallashga kirishmasin u kasbiy tayyorgarlikning muhimligini anglagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu tayyorgarlik samaradorligi talabalarning kasbiy motivatsiyasi darajasiga bog'liqdir. Kasbiy motivatsiya shunchaki mehnat qilish istagi emas, balki bo'lajak maxsus pedagogning ichki ruhiy quvvati va kasbiy barqarorligini ta'minlovchi bosh omildir.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuqori darajali motivatsiyaning shakllanishi ularni nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga va amaliy ko'nikmalarni sidqidildan egallashga undaydi. Maxsus pedagogika sohasi o'zining murakkabligi va yuqori darajadagi mas'uliyati bilan boshqa kasblardan ajralib turgani bois, ichki intilish bo'lmagan talaba tizimli kasbiy rivojlanish jarayonida turli to'siqlarga uchrashi mumkin. Kuchli motivatsiyaga ega bo'lgan mutaxassislar kasbiy faoliyat davomida hissiy charchash sindromiga kamroq chalinadilar va bolalar bilan ishlashda yuqori barqarorlik ko'rsatadilar.

Talabalik davridanoq to'g'ri shakllangan motivatsiya kasbga nisbatan oddiy qiziqishni chuqur ijtimoiy burch va ichki ehtiyojga aylantiradi. Shu bois, motivatsiya tizimi bo'lajak pedagogning nafaqat bilim darajasini, balki uning insonparvarlik pozitsiyasini ham belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Bu xususda bir qator olimlarning izlanishlarida ilmiy xulosalar keltirilgan. Masalan, L.Bojovich motivatsiyaning shaxsning rivojlanish omili sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini va shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlarning o'qish faoliyati va kasbiy rivojlanishga ta'siri kattaligini ta'kidlashicha, T.Shmidt turli omillar (oilaviy muhit, ta'lim muhiti, ijtimoiy sharoitlar) kasb tanlashga va shaxsiy motivatsiyaga ta'sir qiladi, ayniqsa, axloqiy xususiyatlar kasbiy motivatsiya shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi deb

hisoblaydi.

K.Sergeyevich kasbiy motivatsiyani quyidagi 4 ta darajada ochib beradi: "shaxsiy, o'quv-kasbiy, loyihali-amaliy, kasbiy". Uning fikricha: "shaxsiy daraja talabning tafakkuri, olamni anglashi, madaniyati, qadriyatlarini ko'zda tutadi; o'quv-kasbiy motivatsiya bilimlarni o'zlashtirishga intilishni, ko'nikma va malakalarni mujassamlaydi; loyihali-amaliy motivatsiya kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, mashq bajarishga chaqiruvlardan iborat; kasbiy motivatsiya esa, aniq kasbni egallashga intilish va tanlovdan tashkil topadi". Tahlillar asosida quyidagi ta'rif shakllantirildi: "Motivatsiya — shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi omillar ta'sirida shakllanadigan, uni muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni boshlashga, boshqarishga va uni davom ettirishga undaydigan dinamik psixofiziologik jarayondir".

Maxsus pedagogning ishi faqat professional bilimlarni emas, balki nogironligi bo'lgan va alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar va kattalarga yordamni antiegoistik ravishda tashkil etishga intilishni ham talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'limning real sharoitida, ushbu mutaxassislik bo'yicha talabalarda kasbiy motivatsiyani yaxshilashga yordam beradigan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Ko'rinib turibdiki, talabalarning oliy ta'limgacha bo'lgan hayotining qanday kechgani va unga bo'lgan turli salbiy psixologik bosimlar, qo'pol munosabatlar unda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda yoki rivojlantirishda o'zining aksi ta'sirini beradi. Chunki u o'ziga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatlar natijasida kelajakda kutilayotgan faoliyati davomida nogironligi bo'lgan bolalar bilan muloqot modellarini to'g'ri tuza olmasligi mumkin. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda sabr-toqat, shirinsuxanlik, moslashuvchanlik talab etiladi. Bolalarni eshitish va tinglash uchun sabr talab etiladi.

Kasbiy motivatsiya bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining sifati va yo'nalishini belgilovchi bosh mezon hisoblanib, u ta'lim mazmuni va tashkiliy shakllarining uzviy qismi bo'lishi lozim. Tadqiqotchi B.Maxmudovning ilmiy izlanishlarida bayon etilishicha, kasbiy tayyorgarlik muayyan kompetensiyalarga egalik bilan xarakterlanadi hamda subyektning noaniq vazifalarni bajarish, ziddiyatli ma'lumotlar bilan ishlash va kutilmagan vaziyatlarda muqobil harakat rejasini tuza olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maxsus pedagogika sohalarida faoliyat yuritayotgan logoped, surdopedagog, tiflopedagog va oligofrenopedagoglarning kasbiy samaradorligi ularda shakllangan ko'nikmalar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida motivatsion yo'nalgan muhit muhim metodik asos sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mutaxassisning kasbiy o'sishi faqat bilim va amaliy malakalar yig'indisi emas, balki ichki ehtiyoj, maqsad va qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlanadigan tizimdir.

Motivatsiyani omillar majmuasi sifatida talqin qilish maxsus pedagoglarni tayyorlashda metodik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ya'ni, talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish, ijtimoiy ahamiyatni anglash, kasbiy ideallarni shakllantirish kabi komponentlar hisobga olinmasa,

egallangan ko'nikmalar formal tus olishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida motivatsion muhitni yaratish har bir pedagogik fan mazmuni va metodikasiga integratsiya qilinishi zarur.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-shaxsiy motivatsiyasini tizimli rivojlantirishda "Maxsus pedagogika" modulini fanlararo va tarmoqlararo integrativ o'qitishning didaktik imkoniyatlari hamda metodologik asoslari tadqiqot doirasida har tomonlama keng ochib berildi. Mazkur pedagogik jarayon talabalarning sohaga oid fundamental kasbiy tushunchalarini hamda insonparvarlikka yo'naltirilgan shaxsiy-deontologik sifatlarini uzviy integratsiyalash asosida, ularning akademik-ijtimoiy portretini kompleks ravishda tashxis qilish orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi. Motivatsion tizimni samarali loyihalashtirish, ta'lim sifatini uzluksiz nazorat qilish hamda talabalarda o'zini o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni refleksiv monitoring ustuvorligi ostida ta'lim muhitini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiyaning dinamik jarayon sifatidagi xususiyatiga e'tibor qaratish lozim. Maxsus pedagoglar faoliyati doimiy ravishda o'zgaruvchan shart-sharoitlarda amalga oshiriladi, bu esa ulardan moslashuvchanlik, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini talab qiladi. Ana shu ko'nikmalar motivatsion qo'llab-quvvatlovchi muhitda bosqichma-bosqich shakllantirilganda, mutaxassis mavjud motivlarini amaliy faoliyatga samarali yo'naltira oladi.

Motivatsiya nazariyasining rivojlanishida S.Rubinshteynning motiv va faoliyat maqsadi tushunchalariga oid konseptual qarashlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Olim mazkur tushunchalarni ehtiyojlarning shakllanishi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Konsepsiyada markaziy o'rinni shaxs tushunchasi egallab, u ong va faoliyatning o'zaro uzviy bog'liqligini ifodalovchi turli aloqalar tizimi orqali yoritiladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, shaxs mohiyati motivatsion-ehtiyoj tizimi, qobiliyatlar hamda xarakterologik xususiyatlar birligida namoyon bo'ladi.

D.Xaydarov motivatsiya tushunchasiga oid ilmiy qarashlarni umumlashtirar ekan, uning mazmunini ikki asosiy yo'nalish asosida talqin qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Birinchi yo'nalishda motivatsiya tarkibiy jihatdan, ya'ni motivlar va omillar tizimi sifatida izohlanadi. Jumladan, V.Shadrikov konsepsiyasiga ko'ra, motivatsiya shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari, ideallari, da'volar darajasi, faoliyat shart-sharoitlari hamda bilim, ko'nikma, qobiliyat, xarakter, dunyoqarash va e'tiqod kabi ichki va tashqi omillar majmui asosida shakllanadi.

Oliy ta'limning dastlabki kurslaridanoq talabalarni diagnostika qilish orqali kerakli korreksion, motivatsion-rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmlarni qo'llash kasbiy motivatsiyani tizimli rivojlantirish hamda amaliyotga maqsadli yo'nalgan mutaxassislarni tayyorlashda samaradorlikni ta'minlaydi. Integrativ ta'lim zamonaviy pedagogik yondashuv bo'lib, turli bilim sohalari, fan-modullar va o'qitishning nazariy hamda amaliy shakllari, usullarini birlashtirish orqali talabada ijobiy kasbiy o'zgarishlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuning uchun integrativ o'qitishning pedagogik zarurati, birinchi navbatda, talabalarning integratsiyalashgan bilimlarga bo'lgan obyektiv ehtiyoji va ularni o'zlashtirish

jarayonining tashkil etilishidagi qarama-qarshiliklar bilan ham tavsiflanadi. Eng muhim zarurat sifatida real hayotiy va kasbiy muammolarini kompleks hal qilish uchun asos ekanligini ta'kidlash mumkin.

Integrativ o'qitishning maxsus pedagog mutaxassislarni tayyorlashdagi rolini ta'riflashda quyidagi pedagogik shartlar asosiy hisoblanadi: rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va kattalarning o'ziga xos psixofiziologik xususiyatlarini bilish; aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llashda turli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun zarur malakalarni egallash; diagnostika, korreksiya va sotsializatsiyaning kompleks tuzilishi, tibbiyot, psixologiya, pedagogika, tilshunoslik, raqamlashtirish kabi sohalarini birlashtirishi.


Talabalarda kasbiy motivatsiyaning muhim elementlari sifatida quyidagilar shakllangan bo'lishi muhim deb ajratib oldik: har bir bolani nogironlik darajasi, ijtimoiy ahvoli va boshqalardan qat'iy nazar shaxs sifatida sevis; har bir bolaning va uning yaqinlari kutuvlarini anglash hamda hurmat qilish, his qilish; korreksion va inklyuziv ta'lim subyektlariga sifatli xizmatlarning teng iste'molchilari sifatida qarash va hurmat qilish; korreksion mashg'ulotlarning tashkil etilishida ijobiy dinamik o'zgarishlarni bashoratlash va natijalarga ishonch hamda ishontirish; yangilikka ochiqlik va motivatsion yo'nalganlik; korreksion jarayonda adolatlilik, hamkorlik, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, irodalilik, sabr-toqatlilik. Ularning talabalarda tizimli shakllanishida integrativ o'qitishning imkoniyatlari kengdir. Shuning uchun Maxsus pedagogika modulini boshqa ixtisoslik modullari bilan integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli amaliyotga joriy etildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish metodikasi"** deb nomlanib, unda integrativ o'qitish asosida talabalarining kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni va integrativ o'qitishga qo'yiluvchi zamonaviy talablar hamda metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Maxsus pedagogning diagnostik, korreksion va sinergetik faoliyati imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir qiladi. Bu faoliyat turlari talabadan bolaning rivojlanishini chuqur tahlil qilish, samarali korreksion ta'sir ko'rsatish usullarini bilish, farqlash, tanlash, adaptiv qo'llash va turli mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashni talab qiladi. Integrativ yondashuv esa, aynan shu jarayonlarni bir butun yaxlit tizim sifatida modellashtirish va tashkil etishga xizmat qilib, talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabat va barqaror motivatsiyaning shakllantirish imkonini beradi. Yo'nalish uchun tasdiqlangan malaka talabiga ko'ra talabalarining quyidagi yo'nalishlarda kasbiy faoliyat olib borishi belgilangan: Pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirish.

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak logopedlarning tayanch kompetensiyalari sifatida bolalarni diagnostika qilish, korreksiya ishlarini to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish, adaptiv resurslar tayyorlash kabilarning shakllanishida kasbiy motivatsiyaning ta'siri kattadir. Kasbiy kompetensiyalar negizida kasbiy

motivatsiyani rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratildi: diagnostika, korreksiya, metodik transformatsiya, kommunikativ va kasbiy reklama. Bo'lajak mutaxassis bolaning nutqiy rivojlanish darajasini, nuqson turi va sabablarini aniqlay olishi, kompleks tekshiruv o'tkazib, xulosa chiqara bilishi lozim. Bu kompetensiya bola bilan keyingi ishlarni to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi.



1- rasm. Malaka talablarida ko'zda tutilgan kasbiy faoliyat yo'nalishlari va ularga oid kompetensiyalar tavsifi

Logoped nuqsonlarni bartaraf etish uchun samarali metod va usullarni tanlaydi, individual va frontal mashg'ulotlar rejasini tuzadi, Bu jarayonda bolaning yoshi, imkoniyati va ehtiyojlari hisobga oladi. Biroq qo'llanilgan har bir usul ham o'zining natijadorligini ko'rsatmaydi. Shunda logoped tezkor harakatlar orqali metodlarga ma'lum elementlarni kiritgan holda bola bilan ishlashni davom ettirishi talab etiladi. Metodik transformatsiya logoped uchun zarur bo'lib, u turli pedagogik texnologiyalar, mashg'ulot shakllari va korreksion-didaktik materiallardan to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladi. Mashg'ulotlarni qanchalik jozibador tayyorlasa,

shunchalik mutaxassisning reytingi oshadi. Aynan shunga talabalarning motivatsion yo'nalganligini ta'minlashda Maxsus pedagogika moduli mavzulari xizmat qiladi.


Talabalarda jozibador nutqni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bunday nutq uning kasbiy faoliyatida keng imkoniyatlarni yaratadi. Shuningdek, kasbiy faoliyati natijalarini taqdimot qilishda ham ta'sirchan nutq zarur. Shuning uchun talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda ularning nutqi ustida ishlashga e'tibor qaratildi.

Oliy ta'limda nazariy bilimlarni integrativ asosda egallash talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan maxsus pedagogik usullar va mashqlarni qo'llashni talab etadi. Bu jarayonda klinika, psixologiya va pedagogika modullari mazmuni o'zaro bog'liq holda o'zlashtirilishi uchun faol o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muhim. Amaliyotga joriy etilgan metodik algoritmlarga asoslangan integrativ model hamda sinergetik xarakterdagi innovatsion texnologiyalar bir-birini to'ldiruvchi yagona maqsadli tizimni tashkil etdi. Modeldagi interaktiv transformatsiyalar bo'lajak maxsus pedagogning ichki faolligi va intilishga bo'lgan motivatsiyasini uyg'otsa, texnologik diagnostika va leksik bazani jadallashtirish jarayonlari ushbu motivatsiyani kasbiy mahorat bilan mustahkamladi.

Kreativ va differensial yondashuv asosida mashg'ulotlarni rejalashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutdi. Xususan, keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar kabi usullar talabalarning faolligini hamda kasbiy motivatsiyasini oshirdi. Korreksion-adaptiv yondashuvni ta'minlash uchun individual topshiriqlar, bosqichli mashqlar va qo'llab-quvvatlovchi metodik materiallardan foydalanish talab etildi. Bundan tashqari, o'quv, namoyish va tarqatma materiallarni tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim vosita hisoblandi. Prezentatsiyalar, interaktiv platformalar, videomateriallar, elektron darsliklar va assistiv texnologiyalar ta'lim jarayonini boyitdi. Bu vositalar orqali talabalarga ma'lumotni turli shakllarda yetkazish, ularning tushunish darajasini oshirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratdi.

Maxsus pedagogika modulining amaliy mashg'ulotida muammoli o'qitish usuli samarali hisoblandi. Unda talabalarga "Nima uchun?" pedagogik strategiyasi asosida savollar qo'yildi va ular guruhlarda muhokama orqali klinik, psixologik va pedagogik sabablarni tavsifladilar. Bu jarayonda "aqliy hujum", "debat", "klaster tuzish" kabi mashqlar qo'llanilib, talabalarning mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvi rivojlantirildi. Masalan, keys-stadi usuli orqali talabalarga aniq klinik holat berildi va ular shu holatni psixologik va pedagogik jihatdan tahlil qildilar. Bu mashq talabalarda bilimlarni bog'lash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantirdi va kasbiy o'zini anglash sharoiti yaratildi. Natijada, ta'lim tizimi uchun nafaqat nazariy bilimga ega, balki ijtimoiy va ichki motivatsiyasi yuqori, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan mobil mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini kengaytirdi.

Oliy ta'lim jarayonida ta'limni kreativ rejalashtirish va korreksion-adaptiv metodika asosida tashkil etish uchun, avvalo, talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik instrumentlar zarur bo'ldi. Buning uchun anketa, so'rovnoma, kuzatuv xaritalari, testlar hamda refleksiv topshiriqlardan foydalanildi.



2-rasm. Integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modeli

Shu orqali o'qituvchi har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaday kasbiy rivojlanish algoritmini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi.

«Maxsus pedagogika» modulini integrativ o'qitish vositasida talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda kasbiy kontekst ilmiy-amaliy klaster muhitida akademik filtrlash orqali mazmunan tizimlashtirildi.

